

## **Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi hafta davomida 700 nafar fuqaro bilan telemuloqot o‘tkazdi**

Murojaatlar bo‘limi xodimlari 11-15 sentyabr kunlari *Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya, endokrinologiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya, xirurgiya, urologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, Bolalar milliy tibbiyot markazida, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko‘p tarmoqli klinikasida, Buxoro viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Samarqand viloyati viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida, Samarqand viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog‘iston filialida va boshqalarda imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan 310 nafar bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqotlar o‘tkazdilar.*

Bo‘lim xodimlari tomonidan o‘tkazilgan telemuloqotlar natijasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **6(1,9%) nafar** fuqarolar *shifokorlar qarovi va davolash sifatidan, hamshiralar qarovi va muomalasi* yuzasidan e’tirozlarini bildirgan bo‘lsada e’tirozlar yuzasidan Jamg‘armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefon (99-353-93-54, 94-353-93-54)lariga **390 nafar** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning assosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “*sms*” *xabarnoma, jamg‘arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan og‘zaki e’tirozli murojaatlari* bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi *ishonch telefonlariga va Jamg‘arma elektron manziliga* hafta davomida fuqarolardan **9(3,3%)ta** og‘zaki e’tirozli va elektron yozma murojaatlar bo‘ldi.

### **Shulardan:**

Toshkent shahar Sergeli tumanida yashovchi fuqaro turmush o‘rtog‘i imtiyozli yo‘llanma bilan *Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolanish davrida dori vositalarini o‘z hisoblaridan sotib olayotganligi*, Toshkent shahar Chilonzor va Mirobod tumanlarida yashovchi fuqarolar imtiyozli yo‘llanma bilan *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko‘p tarmoqli klinikasida hamda Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolanish davrida shifokorlar qarovidan*, Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo‘llanma bilan *Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida davolanish davrida shifoxona*

*sharoitidan*, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanida yashovchi fuqaro farzandini *Bolalar milliy tibbiyot markazida imtiyozli yo'llanma bilan davolanishi davrida o'z hisobidan dori vositalari uchun pul mablag'lari sarflaganligidan*, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida davolanish davrida shifokorlar qarovidan noroziligini bildirib Jamg'armaning ishonch telefonlariga e'tirozli og'zaki murojaatlar qildilar.

*Yuqoridagi holatlar bo'yicha Jamg'armaning hududiy bo'linma va bosh mutaxassislariga hamda tibbiyot muassasa rahbariyatiga fuqarolarning ma'lumotlari telefon orqali berildi, og'zaki e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.*

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi elektron manziliga Surxondaryo viloyati Termiz shahrida yashovchi fuqarodan Jamg'arma faoliyati hamda dorixonalar uchun afzalliklari yuzasidan elektron murojaat kelib tushdi. Murojaatlar bo'limi xodimlari *fuqaro bilan telefon orqali suhbat o'tkazdi fuqaro o'ziga kerakli ma'lumotlarni oldi va javoblardan qoniqish hosil qildi*.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi xodimi tomonidan Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida amalga oshirilishi va natijalari bo'yicha ma'lumot so'rab og'zaki murojaat qildi. Tashkilotga ma'lumot berish yuzasidan tegishliligi yuzasidan tegishli bo'limlarga bog'lanish uchun telefon raqamlari berildi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida* yashovchi fuqarolardan Jamg'arma ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar hududiy bo'linma hamda bosh mutaxassislariga ma'lumotlari berildi, *og'zaki murojaat qilgan fuqarolarga tegishliligi yuzasidan qaerga murojaat qilish kerakligi tushuntirildi, murojaatlar ijobjiy hal qilindi*.

Murojaatlar bilan ishslash bo'limi xodimlari hafta davomida umumiyligi **700 nafar** fuqarolar bilan telemuloqot o'tkazdilar.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi  
Matbuot xizmati**